

## INGLIZ TILIDA O'QISH KO'NIKMASINI OSHIRISHNING ENG SAMARALI USULLARI

*Maxmadiyeva Nafisa Shuxrat qizi*  
[Tel:\(+998\)949704442](tel:+998949704442)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ko'pchilik ingliz tilini o'rganuvchi o'quvchilarning IELTS va CEFR tizimidagi eng qiyin deb hisoblagan o'qish ko'nikmasini oshirish bo'yicha eng samarali usullari haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** lug'at, maqsadni aniqlash, raxonlik.

### THE MOST EFFECTIVE WAYS TO IMPROVE ENGLISH READING SKILLS

**Annotation:** This article provides information the most effective ways to improve the reading skills that most english language learners find most difficult in IELTS and CEFR.

**Key words:** vocabulary, determine the purpose, fluence.

Har bir tilni o'rganish davomida bir qancha muammolarga duch kelish mumkin.O'z mahoratini oshirishning eng samarali usullaridan biri esa mashq qilishdir. O'qish ko'nikmasini rivojlantirish amaliyotni va har kuni o'qish uchun 10-15 daqiqa vaqt ajratishni talab qiladi. O'qish qobiliyatini yaxshilash uchun yangiliklar, badiiy adabiyotlar, kunlik jurnal sonlarini yoki o'z sohasiga tegishli bo'lgan matnni o'qish mumkin.

Matnlarni oldindan ko'rib chiqish va skanerlash o'qish mahoratini oshirish yo'lidagi yana bir qadam bo'lishi mumkin. Nimani o'qiyotgani haqida tasavvurga ega bo'lish uchun sarlavhalar va boshqa matn xususiyatlarini oldindan ko'rish orqali ushbu strategiyani qo'llash mumkin. Bu usul matnni o'qishdan oldin u haqida asosiy fikrlashlarni shakllantirishga yordam beradi.

O'qiganlarni umumlashtirish o'qish qobiliyatini oshirish imkoniyatini beradi. Aniq qilib tushuntirilganda, xulosa qilish o'quvchining nuqtayi nazari orqali o'qigan narsasi haqida aniq tafsilotlarni va mavzularni eslab qolishga undaydi. Misol uchun, o'rganuvchi do'sti bilan ma'lumot almashish orqali o'qiganlarini og'zaki umumlashtirishga harakat qilishi yoki o'qiganini saqlab qolishi hamda tushunishga yordam berishi uchun qisqacha xulosaga ega bo'lishi mumkin.

Ovozni chiqarib o'qish tushunish qobiliyatini yaxshilaydi. Bu usul o'rganuvchini ikki yo'l bilan o'ziga jalb qiladi ya'ni, ko'zlar bilan so'zlarga qaralganda va quloqlar bilan tinglanganda. Agar talaffuzni mashq qilish kerak bo'lsa ovozni chiqarib o'qish ham muhim ahamiyatga kasb etadi.

O'rganilishi kerak bo'lgan yangi so'zlarni yozish ham til o'rganishni osonlashtiradi ya'ni, matn ichida tushuna olmagan so'zlarga duch kelinsa, ularni yozish va lug'atdan ma'nosini qidirib yod olish va yod olingan so'zlarni har uch kunda bir marta takrorlash nafaqat o'qish ko'nikmalarini oshirishga, balki boshqa yo'nalishlarni yaxshilashga ham yordam beradi.

Bundan tashqari, sahifaga e'tibor qaratishda muammoga duch kelinsa, o'qish paytida ko'rsatgichdan foydalanish kerak. Aniq qilib tushuntirilganda, xatcho'pni,

chizg'ichni yoki kichik qog'ozni olib uni o'qimoqchi bo'lgan sahifaning sartiga qo'yiladi. Keyin esa matnning har bir qatorini o'qish uchun uni ketma-ket pastga surib davom etiladi. Bu usuldan foydalanish o'qish ko'nikmasini yanada oshirishga yordam beradi.

Matnni tushunish oson va qiziqarli bo'lishi uchun do'sti yoki suhbatdoshi bilan shug'ullanishi ham ko'p hollarda yordam berishi mumkin. Sherik bilan matnning bir qismini o'qib, keyin ikkala sheriklar ham asosiy g'oyalarni tushunganliklari haqida ishonch hosil qilish uchun o'qilgan matnning qismi haqida gaplashib fikr almashishlari mumkin. Bu usul ham o'qish ko'nikmasini oshirishda yordam beradigan metodikalardan biri hisoblanadi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim dasturida tahsil olayotgan o'quvchilar uchun o'qituvchilar guruh bo'lib ishslash usulidan foydalanishadi. Masalan, ushbu darslikda o'qituvchi o'quvchilar uchun hozirgi kunda muhim bo'lgan mavzular asosida matnlar beradi va matn bo'yicha asosiy uchta savol beriladi. O'quvchilar ikki yoki uch guruhga bo'linib o'sha matnni o'qib chiqib savollar yuzasidan turli mulohazalar yuritishadi. Guruhlar bo'yicha bahslar olib boriladi va bu albatta o'qish darajasini oshirishning eng foydali usullaridan hisoblanadi.

O'qish ko'nikmasini oshirishda asosan maqsadni qo'yib olish kerak. Kim uchun qanday muammo bo'lsa, masalan, lug'at boyligi yetishmasa ko'proq matndagi yangi so'zlarni belgilab kichik qog'ozchalarga yozib, bir idishga solib qo'yib, har kuni dars boshlashdan oldin shu so'zlarni idishdan olib o'qiganidan so'ng, shu so'zning ma'nosini og'zaki tarzda aytadi va shu tariqa matn ichidagi barcha o'rganuvchiga notanish bo'lgan so'zlar birin-ketin yodlana boshlaydi. Agar o'rganuvchi shu usuldan foydalansa, so'zlar o'rganuvchining xotirasida mustahkam qoladi.

Turli xil kasb egalari: tibbiyot xodimlari, tadbirkor va boshqa soha vakillari o'qish ko'nikmasini oshirish uchun o'z kasb doirasiga bog'liq bo'lgan matnlar bilan ishlab va o'zi uchun barcha yangi so'zlarni yozib yodlasa, o'z sohasini chuqurroq o'rganishida va o'qish ko'nikmasini oshirishda katta yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirib o'tilgan o'qish ko'nikmasiga oid qo'llanmalardan barcha til o'rganuvchilar foydalansa o'zi qo'ygan maqsadlariga erishishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.wikihow.com/Improve-Your-Reading-Skills>
2. <https://www.indeed.com/career-advice/career-development/how-to-improve-reading-skills>
3. <https://www.scholastic.com/parents/books-and-reading/reading-resources/developing-reading-skills/improve-reading-comprehension.html>
4. <https://papers.online-conferences.com>